

**AGROSANOAT KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI
YURITISHNING ZARURIYATI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI****Xaydarova Shoira Nishanbayevna****Toshkent davlat agrar universiteti
tayanch doktoranti****Email address: Shoir8a0@gmail.com****Telefon raqam (+998)977072314****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15697346>**

Annotatsiya: Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida amalga oshirilayotgan izchil islohotlarni yangi pogonaga ko'tarish shu kunning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, bu borada kichik va o'rta biznes sub'ektlariga ko'rsatilayotgan xizmatlarning ko'lami va sifatini, shu jumladan tadbirkorlik sub'ektlari (fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlaydigan kichik va o'rta korxonalar)da iqtisodiy masalalar bo'yicha turli maslaxatlar va kredit berish xizmatlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, outsorsing xizmatlaridan foydalanish kabi vazifalarni amalga oshirish muhimdir

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, kredit, fermer xo'jaliklar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, outsorsing, buxgalteriya hisobi, statistika, tezkor axborot.

Kirish: Biznes yuritish muhitini va madaniyatini yanada yaxshilash, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar, tadbirkorlikka keng erkinlik berish orqali iqtisodiyotimizning asosiy bo'g'ini kichik biznes va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash, ularni rivojlantirish maqsadida qabul qilingan davlat dasturlari asosida hududlarda aholining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi, uning turmush tarzini yanada yuksaltirish va ish bilan bandligini oshirishga e'tibor qaratish alohida ahamiyatga ega. Shu sabab Mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining yetakchi sohalaridan biri bo'lgan agrar sohaga ayniqsa alohida ehtibor qaratilmoqda.

Asosiy qism: Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida amalga oshirilayotgan izchil islohotlarni yangi pogonaga ko'tarish shu kunning eng muhim vazifalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish sharoitida kichik va o'rta biznes mamlakatimiz milliy iqtisodiyotini yaratish, jamiyatning ijtimoiy barqarorligini asosi hisoblanuvchi o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, raqobat muhitini vujudga keltirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Biznes yuritish muhitini va madaniyatini yanada yaxshilash, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar, tadbirkorlikka keng erkinlik berish orqali iqtisodiyotimizning asosiy bo'g'ini kichik biznes va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash, ularni rivojlantirish maqsadida qabul qilingan davlat dasturlari asosida hududlarda aholining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi, uning turmush tarzini yanada yuksaltirish va ish bilan bandligini oshirishga e'tibor qaratish alohida ahamiyatga ega.

Ushbu yo'nalishda sohaga oid ko'plab Qonunlar, Farmonlar hamda qarorlar qabul qilindiki, ular asosida ruxsatnomalarni rasmiylashtirish tartiblari bir muncha soddalashtirilib, muddatlari esa qisqartirildi. Ortiqcha tekshirishlar, naqd pul, valyuta va boshqa har xil cheklovlarga barham berildi. Natijada, so'nggi besh yilda kichik va o'rta biznes sub'ektlari soni

ikki karra ko'paygani, shuningdek ularda 10 million 500 ming odam-jami band aholining 74 foizi daromad topib ro'zg'or tebratayotganligi e'tiborga molik. Iqtisodiyot hajmining yarmidan kop'i shu soha vakillari hissasiga to'g'ri kelayotganligi quvonarlidir.

O'zbekiston Res'ublikasi Prezidenti raisligida kichik va o'rta biznes vakillari bilan yaqinda o'tkazilgan uchrashuvda mazkur yo'nalishni qo'llab-quvvatlash bundan keyin ham davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini ta'kidlab, "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash – bizning strategik yo'limiz, - dedi.

Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida ishbilarmonlarning muammo hamda takliflarini bevosita o'rganish, erkin muloqot asosida biznesni rivojlantirish bo'yicha asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratish va ustuvor vazifalarni belgilash haqida fikr almashildi.

Xususan, 2025 yilda uning iqtisodiyotdagi ulushini 55 foizga ko'tarib, 70 milliard dollarlik qo'shilgan qiymat yaratish;

- yangi bozorlarga kirib borishda transport, sertifikat va standartiga ko'maklashib, kichik biznes eksportini o'tgan yilgi 9 milliarddan 12 milliard dollarga olib chiqish;
- ichimlik suvi, kanalizatsiya, yo'l, qurilish, madaniyat va ijtimoiy xizmatlarda kichik biznes ulushini 2-3 karra oshirish;
- 1,5 million doimiy ish o'rni tashkil qilib, sohada band aholi ulushini 75 foizga yetkazish;
- Kichik biznesda yangi 100 ta brend maxsulot chiqarishni yo'lga qo'yish va boshqa bir qancha katta maqsadlar qo'yildi.

Davlat raxbari bularning samarasida kichik va o'rta biznesga yaratiladigan imkoniyatlarni alohida qayd etib o'tdi. O'zbekistonda biznes yuritish muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlikka keng erkinliklar berish maqsadida banklar tomonidan imtiyozli kreditlash orqali xududlarda aholining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi, ularning turmush tarzini yaxshilash va ish bilan bandligini oshirishga qaratiladi. Xususan, aholini tadbirkorlikka jalb qilish uchun 22 trillion so'mlik imtiyozli resurs ajratilishi, shuningdek 2,5 trillion so'mi yoshlarga, yana shunchasi ayollar tadbirkorligi loyihalari uchun yo'naltiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992 –sonli Farmonida mamlakatimizda "Kichik va o'rta biznes sub'ektlariga ko'rsatilayotgan xizmatlarning ko'lamini va sifatini shu jumladan tadbirkorlik sub'ektlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda xizmat ko'rsatish" vazifalari belgilab qo'yilgan.

Kichik va o'rta biznes sub'ektlariga ko'rsatilayotgan xizmatlarning ko'lamini va sifatini, shu jumladan tadbirkorlik sub'ektlari (fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlaydigan kichik va o'rta korxonalar)da iqtisodiy masalalar bo'yicha turli maslaxatlar va kredit berish xizmatlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, outsorsing xizmatlaridan foydalanish kabi vazifalarni amalga oshirish muhimdir. Lekin ushbu masala viloyat, tumanlarning uzoq qishloqlarida va aholi yashaydigan tog'li hududlarida o'z tadbirkorlik faoliyatlarini boshlash, uni bir me'yorda yuritish va mavjudlarini takomillashtirish yo'lida ba'zi yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud.

Shuning uchun ham mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining yetakchi sohalaridan biri bo'lgan agrar sohaga ayniqsa alohida ehtibor qaratilmoqda. Masalan, qishloq joylarida fermer xo'jaliklarini, kichik korxonalarni yoki xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish maqsadida bu ishlar bilan bog'liq axborotni yig'ish, umumlashtirish hamda muvofiqlashtirib borishning yetarli emasligi yoki uni olishdagi muammolarni uchratish

mumkin. Kichik va o'rta biznes vakillarining o'z faoliyatini nimadan boshlamoq kerakligini, uni boshqarish sirlari va biznes reja tuzish to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi va ayniqsa, endigina ish boshlayotgan tadbirkorga o'z faoliyatini tashkil qilishi va yuritishi bo'yicha uning turli huquqiy shakllari, ularning afzalliklari va kamchiliklari haqida tasavvurga ega bo'lishi uchun yetarli darjada ko'rsatma, yo'riqnoma hamda boshqa mehyoriy xujjatlar bilan tahminlash va masalalarga oid maslahatlar berish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

Xulosa. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish yo'lini tanlagan har qanday mutaxassis o'zi boshqarishi kerak bo'lgan kichik korxonani moliyaviy resurslarini buxgalteriya hisobi, statistika va tezkor axborotlar asosida nazorat qilishi va uni tahlil etish bilan bog'liq qator moliyaviy masalalarni hal qila olishi kerak. Ayniqsa, har bir kichik biznes subhekti rahbari buxgalteriya hisobini mustaqil yuritish uchun yetarli bilimga ega emasligi ayon, chunki ular turli soha vakillari bo'lib hisoblanadilar. Natijada buxgalteriya hisobini to'g'ri va aniq yuritishdagi xatoliklar, soliqlarni hisoblab chiqish va to'lovlardagi noaniqliklarga olib keladi yoki boshlang'ich xujjatlardagi yo'l qo'yilgan xatolar moliyaviy hisobotda ham o'z aksini topadi. Bunday noaniqliklar esa kichik biznes subhektlarining moliyaviy ahvolini tang holatga solib qo'yishi mumkin.

Bu esa korxonani boshqarishda maqsadga muvofiq qarorlar qabul qilishda va marketing xizmatlarini amalga oshirishda ham sezilishi mumkin. SHuning uchun ham biznes subhektlarini kerakli, shaffof ma'lumotlar bilan ta'minlash va shu yo'l bilan tadbirkorlik faoliyati jarayoniga kengroq jalb qilish, sohani yanada rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurashidova G.A. Paxta to'qimachilik klasterlarida xarajatlar hisobini takomillashtirish// "Logistika va iqtisodiyot" Ilmiy elektron jurnali. Toshkent, 2022 yil 4-son.- B.135-145 b
2. Buxovets A. G. Don ekinlarining alohida turlarining hosildorligini prognoz qilishda zamonaviy yondashuvlar va usullar / A. G. Buxovets, E. A. Semin, T. Ya. Biryuchinskaya; Imperator Pyotr I nomidagi Voronej davlat agrar universiteti, 2016 yil.
3. Karataev A. A. Klaster tahlilining asosiy tushunchalari va amaliy fanlarda qo'llanilishi / A. A. Karataev // Fan kundaligi. - 2023. - No 6 (78).
4. Smagin, B. I. The use of cluster analysis in the analysis of economic processes of agricultural production / B. I. Smagin // Science and Education. – 2021.– vol. 4, No.2.
5. Tyurin Yu.N. Data analysis on a computer / Yu.N. Tyurin, A.A. Makarov – M.: ICNMO, 2016. - 368 p., ISBN: 978-5-4439-1011-6
6. Khalafyan A.A. STATISTICA 6. Statistical data analysis / A.A. Khalafyan – M.: Binom-Press LLC, 2010. – 528b.
7. S. S. Kankal1. A Brief Survey on Clustering Algorithms in Data Mining / S. S. Kankal1, A. R. Dhakne, Y. R. Tayade // International Journal for Scientific Research & Development| Vol. 4, Issue 11, 2017 | ISSN (online): .494-497b